

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KURBANOVA RAXIMA ABDULLAYEVNA

**GAPNING PROPOZITIV STRUKTURASI VA SINTAKTIK
QURILMALAR DERIVATSIYASI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Kurbanova Raxima Abdullayevna

Gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi 3

Курбанова Рахима Абдуллаевна

Пропозитивная структура предложения и деривация синтаксических
конструкции 23

Kurbanova Rakhima Abdullaevna

Propositional structure of a sentence and derivation of syntactic constructions..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KURBANOVA RAXIMA ABDULLAYEVNA

**GAPNING PROPOZITIV STRUKTURASI VA SINTAKTIK
QURILMALAR DERIVATSIYASI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3710 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Mamatov Abdug'ofur Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor
Muxamedova Saodat Xudoyberdiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "14" 09 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, bosh o'quv binosi, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (17 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: 239-11-40; 239-18-92 faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "28" 08 kuni tarqatildi.
(2024-yil "28" dagi raqamli reyestr bayonnomasi).



J.D.Eltazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

Sh.S.Mahmadiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.B.Abdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi
o'rinbosari, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasining lingvistik qonuniyatlari asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolmoqda. Uning til va nutqqa tegishli dixotomik munosabatini ochib berish bugungi kunda lingvistik zarurat sifatida yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, til birliklarining nutqiy aktuallashuvi, ularning semantikasi, sintaktikasi va pragmatikasini formal-struktur hamda mazmuniy sintaktik birliklar sathini asoslash hamda gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalarning derivatsiyasini tilshunoslikda shakllangan zamonaviy paradigmalarning aniq mezonlari asosida yoritish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligidagi globallashuv davri lingvistik masalalarga etnik, madaniy, tarixiy va fundamental-struktural, qiyosiy, nazariy yondashishni taqozo etmoqda. Shu bois gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasining ilmiy-nazariy ahamiyatini aniqlashga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yo'nalishda til va nutq birliklarining xususiyatlarini belgilash, tilga jamiyatning millatlararo va madaniyatlararo muloqot shakli sifatida qarash, unga xos bo'lgan borliqning belgiga munosabati, belgining belgiga munosabati, belgining insonga munosabatini ochib berish asosiy vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda tilshunoslik sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, sintaktik sathga oid birliklarning tildagi va nutq jarayonidagi mazmuniy munosabati shular jumlasidandir. Shunday bo'sa-da, gapning murakkab tabiati va ko'p aspektli ekani bugungi kungacha tilshunoslikda o'zining to'la tavsifini topa olgani yo'q. "Davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlarni muntazam va har tomonlama o'rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish"¹ o'zbek adabiy tili me'yorlarini tilimizning o'ziga xos xususiyati asosida belgilash lozimligi zaruratini taqozo etadi. Bu borada, tilshunoslikda gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi yuzasidan o'zbek tilshunosligida gapning predikativlik asosi va propozitiv strukturasi, ularning derivatsion xususiyatlarini, parataktik va gipotaktik qurilmalar strukturalarning derivatsiyasini o'rganish zamonaviy tilshunoslik ilmida dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF – 5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF – 5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF – 60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ – 2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagi PQ – 3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlar to'g'risida",

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // www.lex.uz

2018-yil 5-iyundagi PQ – 3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ – 5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi 292-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tashkilotlar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son qarori, 2018-yil 10-oktyarbdagi “Oliy ta’lim muassasalarini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi 816-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasining tilshunoslikda nutq tarkibidagi o‘rni va matnga xos hodisa sifatida formal-struktur, semantik-sintaktik va funksional jihatlari tilshunoslardan F.de Sossyur, Y.Kurilovich, V.Matezius, A.Martine, A.A.Xolodovich, O.Bhagel, J.Erben, W.Jung, J.Ries, Sh.Balli, O.Espersen, Z.Xarris Y.Apresyan va boshqa ko‘plab olimlarning izlanishlarida yoritilgan².

Rus tilshunosligida gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi sintaktik sathdagi semantik sintaktik jihatlari tadqiqi A.A.Potebnya, E.A.Boduen de Kurtene, A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradov, M.I.Stebnin-Kamenskiy, A.I.Smirnitskiy, Y.S.Stepanov, A.G.Rudnev, A.M.Peshkovskiy, A.N.Gvozdev, E.I.Shutova, V.B.Kasevich kabi olimlarning asarlarida ham tahlil qilingan³.

² Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. – М., 1977. –С. 56-58.; Курилович Е. Очерки по лингвистике. – М., 1960; Холодович А.А. Проблемы грамматической теории. – Ленинград, 1979; Матезиус В. О так называемом актуальном члени предложения // Пражский лингвистический кружок. – М., 1967; Мартине А. Основы общей лингвистике. – НЛ.Вып. III. – М., 1963; Bhagel О. Die deutsche. – Halle, 1954. – S.28; Erben J. Grundzuge einer Syntax der Sprache Luthers. – Berlin, 1954. – S. 28-30. Jung W. Kleine Grammatik der deutschen Sprache. – Leipzig, 1953. – S.25. Ries J. Zur Wortgruppenlehre. – Praga, 1928. –S.5.

³ Потебня А.А. Из записок русской грамматике. т. I. – Воронеж, 1874; т. II. – Харьков, 1874. И. А. Бодуэн де Куртенэ О древне-польском языке до XIV столетия. –Лейпциг, 1870. <http://gbooks.archeologia.ru/>; Опыт фонетики резьянских говоров. Варшава-СПб.-Лейпциг, 1875; Некоторые отделы “сравнительной грамматики” славянских языков // Русский филологический вестник. 1881. №2; Об отношении русского письма к русскому языку. СПб., 1912. Сборник задач по “Введению в языковедение”, по преимуществу применительно к русскому языку. СПб., 1912. Введение в языковедение. 5 изд. СПб., 1917 [литогр.]; Избранные труды по общему языкознанию. –М., 1963. <http://www.twirpx.com/file/280513/>; Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М.: Учпедгиз, 1956. – 448 с. Шахматов А. А. Синтаксис русского языка. – М.: Эдиториал УРСС, 2001, – 624 с.; Виноградов В. В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М., Наука, 1975. –458 с.; Стеблин-Каменский М. И. Спорное в языкознании. – Л., Изд. ЛГУ, 1974. –140 с.; Смирницкий А. И. Синтаксис английского языка. – М., 1957. –280 с.; Степанов Ю.

Tilshunoslikda gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasining o'rganilishi, uning semantik sintaksis strategiyalaridan biri ekanligi, gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi muammolarini o'rganishda asrlar davomida shakllangan zamonaviy metodlar asosida yondashuv hozirgi kunda dolzarb, keng tarqalgan yo'nalish bo'lib, bu sohada o'zbek tilshunosligida propozitiv struktura va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi tahliliga bag'ishlangan ishlar G'.Abdurahmonov, A.G'ulomov, M.Asqarova, R.Sayfullayev, Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, A.Nurmonov, H.Ne'matov, R.Sayfullayeva, N.Turniyozov, M.Qurbonova, R.Bobokalonov, M.Abuzalova, L.Raupova, X.Xayrullayev, B.Turniyozov, G'.Yaxshiboyev, Sh.Turniyozova, Z.Qurbonov, R.Samandarov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan hamda bular hozirda ham davom ettirilmoqda⁴.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlardan farqli ravishda ushbu tadqiqot gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi hodisasining umumnazariy tabiatining tadqiqiga bag'ishlanganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Dissertatsiya tadqiqotining ish bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasining formal-sintaktik hamda funksional-semantik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasining nazariy asoslari bo'yicha jahon tilshunosligidagi mavjud qarashlarni dalillash;

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasining o'ziga xosligi va ahamiyatini ochib berish;

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi mezonini hamda usullarini asoslash;

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi shakllanishini ochib berish.

С. Основы общего языкознания. – М.: Просвещение, 1975. –267 с.; Руднев А. Г. Синтаксис современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1968. –319 с.; Гвоздев А. Н. Современный русский литературный язык. II. – М.: Просвещение, 1968. –344 с.; Шутова Е. И. Вопросы теории синтаксиса. – М.: Наука, 1984. – 261 с.; Касевич В. Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. – М.: Наука, 1988. –290 с.

⁴ Абдурахмонов Ф.А. Қўшма гап синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1964. –245 б.; Абдурахмонов Г.А. Синтаксис осложненного предложения (к некоторым спорным вопросам тюркских языков) // Структура и история тюркских языков. – М.: Наука, 1971. –311 с.; Абдурахмонов Ф. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. –246 б.; Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1964. –245 б.; Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. –250 б.; Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: автореф. док. дис. – Ташкент, 1984; Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –228 б.; Нурмонов А., Махмудов Н., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 292 б.; Нурмонов А. Гап ҳақида синтактик назариялар. – Тошкент, 1988. –99 б.; Расулов И. Предикативлик ва модаллик ҳамда уларнинг ўзаро муносабати га доир // Ўзбек тили ва адабиёти, №4, 1972. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал функционал талқини. – Тошкент: Фан, 1994. –356 б.; Турниёзов Н. Назарий грамматикадан очерклар. – Самарқанд, 1998. –47 б.; Хайруллаев Х. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2001; Хайруллаев Х. Предикативлик ходисаси ва унинг ифода объектлари. – Самарқанд, 2002. –92 б.

Tadqiqotning obyekti sifatida yasama soʻz, soʻz birikmasi, sodda gap derivatsiyasi va uning propozitiv strukturasi, parataktik va gipotaktik qurilmalar derivatsiyasi hamda ularning monopropozitiv strukturalari olingan.

Tadqiqotning predmetini gap hamda parataktik va gipotaktik strukturalarning predikativlik asosi va ularning derivatsion xususiyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsifiy, qiyosiy-tipologik, transformatsion, konseptual-semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gapning X+V, N+X, X kabi propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi oʻzbek tilidagi bir bosh boʻlakli, toʻliqsiz gaplar, soʻz gap kabi tiplarda qisqa va sodda shaklda namoyon boʻlishi asoslangan;

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi doirasida tub soʻz *Samarqand* – xarita nomi, yasama soʻz *Oʻqituvchi* – tasviriy sanʼat asari nomi, soʻz birikmasi *Universitet xiyoboni* kabilarda kelishi dalillanib, sodda gap, parataktik va gipotaktik qurilmalarning propozitiv strukturasi hamda predikativlik belgilarining implitsit va eksplitsit jihatlarda uchrashi asoslangan;

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasining propozitsiya va predikativlik haqidagi nazariy qarashlarga koʻra *predikativlik va kesimlilik, predikativlik hamda ega va kesim munosabati, predikativlik va gap boʻlaklari* kabilar bilan bogʻliq formal-struktur va semantik xususiyatlari ochib berilgan;

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasining qiyosiy chogʻishtirish, sistem-struktur, antropologik jihatlari ochib berilib, ularning *sintaktik va semantik tomondan* propozitiv hamda presupozitiv jihatlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oʻzbek tili tizimida gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasida propozitsiya, predikativlik haqidagi nazariy qarashlarga doir xulosalar ona tili taʼlimi mazmunini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslangan;

propozitiv struktura va sintaktik qurilmalar derivatsiyasida propozitsiya, predikativlik haqidagi nazariy qarashlardan foydalanish yuzasidan xulosaviy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi yasama soʻz, soʻz birikmasi, sodda gap, parataktik va gipotaktik qurilmalarning lingvistik tahlili va tavsifi hozirgi oʻzbek adabiy tili matireallari misolida dalillangan;

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasiga oid umumnazariy yondashuvning oʻzbek tili materialiga tatbiqi asosida qilingan natijalar asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qoʻyilgani, chiqarilgan xulosalarning tasniflash, tavsiflash va qiyosiy tahlil kabi usullar vositasida asoslanganligi, nazariy maʼlumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan lisoniy materialning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, obyektga yondashuv va qoʻllanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, xulosalarning qatʼiyligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq

etilganligi, tadqiq materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasini o‘rganish jarayonida yasama so‘zlar, so‘z birikmalari, sodda gap, murakkab sintaktik qurilmalar, xususan, ulardagi parataktik va gipotaktik munosabatlarning derivatsion yondashuvdagi tadqiqi asosida lingvistik tavsifga erishilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi tahlili natijasida olingan umumlashtirilgan xulosa va tavsiyalar kelajakda yanada yuqori saviyadagi nazariy asarlar yaratishda muhim qo‘llanma bo‘lishi mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalarida derivatologiya muammolari, matn lingvistikasi, matn tahlili, tilshunoslik, tilshunoslikka kirish, tilshunoslik asoslari, tishunoslik nazariyasi fanlari bo‘yicha ma‘ruza matnlari tayyorlash, darslik, o‘quv qo‘llanmalar hamda lug‘atlar yaratishda foydali material bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi tadqiqi bo‘yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasining propozitsiya va predikativlik haqidagi nazariy qarashlarga ko‘ra *predikativlik va kesimlilik, predikativlik hamda ega va kesim munosabati, predikativlik va gap bo‘laklari* kabilar bilan bog‘liq formal-struktur va semantik xususiyatlaridan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 29-dekabrda 22/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada, fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalarda til va nutq hamda sintaktik qurilmalar derivatsiyasi bilan bog‘liq ilmiy aniqlikning oshirilishiga erishilgan;

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi doirasida tub so‘z *Samarqand* – xarita nomi, yasama so‘z *O‘qituvchi* – tasviriy san‘at asari nomi, so‘z birikmasi *Universitet xiyoboni* kabilarda kelishi dalillanib, sodda gap, parataktik va gipotaktik qurilmalarning propozitiv strukturasi hamda predikativlik belgilarining implitsit va eksplitsit jihatlarda uchrashi asoslanganligidan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan II-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 29-dekabrda 1409/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi umumnazariy yondashuv asosida tahlili matn mazmunini belgilab berishga xizmat qilishi ushbu loyihani boyitishga xizmat qilgan;

gapning X+V, N+X, X kabi propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi o‘zbek tilidagi bir bosh bo‘lakli, to‘liqsiz gaplar, so‘z gap kabi tiplarda qisqa va sodda shaklda namoyon bo‘lishidan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo‘ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida dissertatsiya ilmiy xulosalari va ilmiy natijalaridan foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 28-dekabrda 1400/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasida propozitsiya, predikativlik haqidagi nazariy qarashlardan foydalanish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan bog‘liq ilmiy xulosalar asosida o‘quv qo‘llanma, darslik, dissertatsiyalar yaratilishda va oliy ta‘lim tizimida o‘qitiladigan hozirgi o‘zbek tili (sintaksis), matn tahlili, tahliliy o‘qish, stilistika kabi ko‘plab fanlar doirasida yangi manbalar yaratilishiga erishilgan;

gapning propozitiv strukturasi va sintaktik qurilmalar derivatsiyasining qiyosiy chog‘ishtirish, sistem-struktur, antropologik jihatlari ochib berilib, ularning *sintaktik va semantik tomondan* propozitiv hamda presupozitiv jihatlaridan Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida 2021-2023-yillarda bajarilgan “O‘zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihada dissertatsiyaning yasama so‘z, so‘z birikmasi, sodda gap, parataktik va gipotaktik qurilmalarning lingvistik tahlili, tavsifidan hamda propozitsiya, predikativlik haqidagi qarashlardan nazariy va amaliy foydalanilgan (Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2023-yil 29-dekabrda 898/01-01-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan maqolalar va til korpusi haqidagi olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy saviyasini boyitishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan, mahalliy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnallarida 6 ta maqola e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 134 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy

ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Gapning predikativlik asosi va propozitiv strukturasi**" deb nomlangan. Bu bobda predikativlik hodisasining umumiy talqini, propozitiv struktura haqida ma'lumot keltirilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafi "*Predikativlik hodisasining umumiy talqini*" deb nomlangan. Gapning ta'rif va tavsifi borasida izlanishlar natijasi o'laroq vujudga kelgan qarashlarda uning o'ziga xos xususiyatlari aynan nimadan iboratligi, nimaning evaziga qaysi jihatlarining shakllanishi borasida ko'plab fikrlar, dalillar keltirilgan bo'lsa-da, ular gapning tom ma'nodagi xususiyatlarini mufassal ochib bera olgan deyish qiyin. Gap va uning lingvistik mohiyatini anglashdagi murakkabliklar tadqiqida *predikativlik tushunchasi* va *predikativlik hodisasi* haqidagi qarashlar ham nihoyatda munozarali va tadqiqatlabdir.

A.A.Shaxmatov predikativ yadroni ikki komponentga, ya'ni ega va kesim yoki bir bosh bo'lak, egami, kesimmi, xullas, ulardan biri tashkil etishi xususida fikr bildirgan. Ikki bosh bo'lakli gaplarda ikki markaz – ega va kesim asosiysi bo'lib, qolgan bo'laklar ularga tobe bo'ladi, degan fikrni ilgari surgan⁵. Biroq nutqda shunday jumlar ham qo'llanadiki, ularda odatdagi tahlilga ko'ra na bosh bo'lak, na ikkinchi darajali bo'lak belgilaridan birortasi ham kuzatilmaydi.

Mavjud adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, gapda uchta o'ta muhim asosiy jihat mujassamdir. Bular undagi *struktura*, *semantika* hamda *pragmatika*dir. Gapga xos bo'lgan bu uch aspekt biri boshqasidan kam bo'lmagan, biri-birini to'ldirib turuvchi, o'z navbatida, biri boshqasining ham bo'lishini taqozo etuvchi xususiyatga egadir. Ularning umumiy xossalari birlashganidagina gap to'laqonli kommunikativ funksiyasini bajarishga qodir bo'la oladi. Bu borada A.Nurmonov, M.Hakimovlarning qo'yidagi fikri ahamiyatlidir: "Nutq vaziyati bilan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun sintaktik qurilma ifodalagan propozitsiyaning so'zlashuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun nutq vaziyati yoki kontekst zarur bo'lgan joyda pragmatikaga ehtiyoj ortadi"⁶. Keltirilgan fikrning ahamiyatli tomoni shundaki, gap o'zi muayyan predikativlik ifodasiga ega bo'lsa ham, u nutqiy vaziyat, matndagi kontekstual belgilar bilan birgalikda konkret ifodasiga ega bo'ladi.

Gapning mazmuniy strukturasi kommunikativ niyat ifodasi mujassamligi, bir qarashda so'zlovchi biror voqea-hodisani shunchaki aytayotgandek tasavvurni keltirib chiqarsa ham, undagi ichki-yashirin ma'no yuzaga chiqsa, kommunikativ maqsad to'g'ri anglanadi⁷. Bu esa, shubhasiz, gapning kontekstda namoyon bo'luvchi xususiyatidir.

Qayd etilgan bu uch belgi o'zaro uzviylikka asoslangan bo'lib, ularning har biri, o'z navbatida, biri boshqasining bo'lishini taqozo qiladi va shu bois gapda ularning har uchasi ham mujassam bo'ladi. Ana shunga ko'ra gap to'laqonli

⁵ Стародумова Е.А. Синтаксис современного русского языка. –Владивосток, 2005. –С. 54.

⁶ Нурмонов А., Ҳақимов М. Синтактик бирликларнинг прагматик томони // Нурмонов А. Танланган асарлар. 3-жилдлик. 3-жилд. –Тошкент: Академнашр, 2012. –Б. 245.

⁷ Умурзакова М.Э. Ўзбек тилида сегмент курилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. –Тошкент, 2019. –Б.18.

kommunikativlikka ega bo‘ladi. Gap nutqning minimal kommunikativ birligidir⁸. Albatta, gapdan kichik birliklar tilga tegishli bo‘lib, ular gapning tashkil etuvchilari hisoblanadi. So‘zlar gapning tashkil etuvchilari, boshqacha aytganda, so‘z gapning konstitutiv komponentidir. Masalan, *quyosh* so‘zining lug‘atdagi va gapdagi holatiga e‘tibor qaratilsa, bunda mazkur so‘z lug‘at tarkibining komponenti sifatida *osmon jismi, nur sochish, yoritish, isitish* singari semalarni o‘zida mujassam etgan lug‘aviy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Shu so‘zdan iborat bo‘lgan gapni oladigan bo‘lsak, bunday vaziyatda u nutqning minimal birligi hisoblangan gapni *tashkil etuvchisi*, boshqacha aytganda struktur jihatdan yagona tashkil etuvchisi bo‘lib sanaladi. Ifoda planiga ko‘ra esa, nutqiy aktda nutq vaziyati va so‘zlovchining munosabatiga ko‘ra *havoning o‘ta issiqligini ifodalashi* mumkin.

Sintaktik birliklarning muayyan variativlik tomonlarini ham kuzatish mumkin. Darhaqiqat, mazkur jarayonda denotativ xususiyatning ifoda plani va mazmun planida o‘zaro nomuvofiqlik ham kuzatilishi holatlarini ham qayd etish mumkin. Vaziyat ifodasida biror-bir gap alohida olingan gapni yoki biror-bir murakkab sintaktik konstruksiyaning komponenti maqomida bo‘lishi ham uzatiladi. Masalan, 1. *Tabib tashrif buyurdi*. 2. *Tabib tashrif buyurdi, bemorning chehrasi yorishdi*.

Keltirilgan misollarning birinchisida predikativ qurilma mustaqil holda sodda gap maqomidagi konstruksiyani taqozo etmoqda. Ikkinchi misolda esa, ayni konstruksiya murakkab sintaktik konstruksiyaning komponenti maqomidadir.

R.J.Saurbayev turli funksional uslublarga xos matnlarda predikativlikni aniqlash, konkretlashtirish borasida o‘z mulohazalarini bayon qilgan. Bunda turli xil matnlarda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan predikativ belgining to‘liq va yarim predikativli belgilarini aniqlash mumkinligi ko‘rsatib berilgan⁹. Biz esa, har qanday sintaktik konstruksiya o‘z komponentlari qanday elementlardan iborat bo‘lishidan qat’i nazar, kommunikativ planga ko‘ra yagona predikativ strukturaga ega bo‘lmog‘i lozim, deb hisoblaymiz. Chunki har qanday sintaktik konstruksiya yaxlit sintaktik butunlikni tashkil qiladi va pirovardida undagi predikativlik ham shunga muvofiq tarzda yaxlit va shu qurilma uchun yagona bo‘ladi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Propozitiv struktura haqida ma’lumot*” deb nomlangan. XX asrning ikkinchi yarmida mazkur masalaga jahon tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida alohida ahamiyat qaratildi. Ko‘plab tilshunoslar mazkur muammo doirasida mavjud masalalarni tadqiq etishdi hamda ayni masalalar yechimiga doir ilmiy yangiliklarni fanga taqdim qildilar. Bu borada o‘zbek tilshunosligida ham katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, A.G‘ulomov, M.Asqarova, G‘.A.Abdurahmonov, N.Mahmudov, A.Hojiyev, A.Nurmonov, H.Ne‘matov, A.R.Sayfullayev, R.R.Sayfullayeva, N.Turniyozov, G.Boqiyeva, J.Bo‘ronov, A.Abduazizov, A.Berdialiyev, Sh.Safarov, H.Jamolxonov, Sh.Rahmatullayev, M.Hakimov, O.Bozorov, B.O‘rinboyev, M.Qurbonova, B.Yo‘ldoshev, S.Mahmatqulov, M.Abuzalova, B.Mengliyev, Sh.Shaxobiddinova, A.Sh.Sobirov, G.M.Xashimov, J.A.Yakubov, Sh.Iskandarova, D.Nabiyeva,

⁸ Хайруллаев Х. Нутк бирликларининг поғонали муносабати. –Самарқанд, 2008. – Б.66

⁹ Саурбаев Р.Ж. Конструкционная функция предложения и фактор открытой предикации//Вестник ТГПУ. 2010, Выпуск 7 (97). – С.61-66.

Z.N.Xudoybergenova, M.Yo‘ldoshev, D.Lutfullayeva, J.D.Eltazarov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ishlar fan taraqqiyoti dinamikasi uchun salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi.

Propozitsiya termini (lotincha *propositio* – gap), til birligining mazmuniy tipi, tafakkurdagi mavjudlikni til situatsiyasi sifatida zamon mezonlari parametrlari bilan xarakterlovchi hodisa sifatida qayd etiladi¹⁰. *Propozitsiya* tushunchasi nutqda namoyon bo‘luvchi *hodisa, vaziyat, holat modeli* tarzida tavsiflangan, ma‘lumotlar ham mavjud (lotincha *propositio* – gap). lug‘atlarda, asosan, bu tushuncha *gap* deb ko‘rsatilgan¹¹.

O‘zbek tilshunosligida *propozitsiya* xususida N.Mahmudov, A.Nurmonovlar gapning grammatik kategoriyalari xususida munosabat bildirish jarayonida muayyan fikr qayd etishgan bo‘lib, bunda quyidagi misol keltiriladi: *O‘rikning gullashi. O‘rik gulladi. O‘rik gullaydi*. Qayd etilishiga ko‘ra, bu sintaktik qurilmalarning hammasida bir voqea, ya‘ni subyekt (o‘rik) va uning holati (gullamoq) haqida axborot beriladi. Sintaktik qurilma ifodalagan obyektiv dalil, voqea *diktum* hisoblanadi. Ayrim mualliflar mantiq terminologiyasidan foydalangan holda, uni *propozitsiya* atamasi bilan nomlaganliklari xususida ham ma‘lumot keltirilgan. N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning mazkur asaridagi qaydlarga ko‘ra, *propozitsiya* va *diktum* analogik tushunchalar ekanligi kelib chiqadi. Ayni asardagi ma‘lumotlar *modus* sintaktik qurilma orqali ifodalangan voqeaning borliqqa munosabati hamda so‘zlovchining o‘zi ifodalayotgan voqeaga munosabati ifodasini beradi.¹²

Bu borada M.Qurbonova, R.Sayfullayeva, G.Boqiyeva, B.Mengliyevlarning qaydlariga ko‘ra, sintaktik birlik (so‘z birikmasi, gap bo‘lagi, gap) da ifodalangan borliq bo‘lagi, voqelik, vaziyat mazmuniy sintaksisda *propozitsiya* deb yuritiladi. Ayni manbada keltirilgan (*Men o‘quvchiman*. 1. Men o‘quvchiman – I am school boy. 2. Men o‘quvchiman – I am readineer.) gapi sintaktik shakl sifatida ikki mazmuni ifodalagani bu boradagi mulohazalarimizni yanada mustahkamlaydi¹³.

Bizningcha, *propozitsiya* – semantik strukturaning tashqi ifodasi bo‘lib, semantik salmoqning sintaktik ifodasini taqozo etadi. *Propozitsiya* – sintaktik qurilmada mavjud mazmuniy plan va ifodaning shakllanishi uchun xizmat qiluvchi sintaktik strukturasi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Gap sintaktik shaklining kengayishi, gapning konstitutiv unsurlari va ularning derivatsion xususiyatlari**” deb nomlangan. Gapning derivatsiyasida uning konstitutiv unsurlari masalasi alohida o‘rin tutadi. Bunday unsurlar sifatida so‘z va uning sintagmatik munosabati jarayonida shakllanuvchi sintaktik aloqalar, xususan, bu borada so‘z birikmalarining shakllanishi kuzatiladi. Bundan tashqari, yasama so‘zning derivatsiyasi masalasi ham borki, ularning lingvistik tavsifi bu boradagi qarashlarni oydinlashtirish uchun xarakterlidir. Shu bois ham gapning derivatsiyasi haqida fikr

¹⁰ Большая российская энциклопедия - электронная версия..... 2005–2019.

¹¹ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань, 2010. –С. 290.

¹² Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). –Тошкент, 1995. – Б.23.

¹³ М.Курбонова, Р.Сайфуллаева, Г.Боқиева, Б.Менглиев. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. Ўқув қўлланмаси. – Тошкент, 2004. –Б. 52.

bildirishda, avvalo, qayd etilgan konstitutiv unsurlar va ularning derivatsiyasiga doir qarashlarni ham o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Derivatsiyaning leksik, sintaktik, semantik derivatsiya deb nomlanuvchi turlari zamonaviy tilshunoslikda keng qo'llanilishidan kelib chiqqan holda, ularning har biri o'ziga xoslikka va, o'z navbatida, umumiylikka egadir. Derivatsiyaning qayd etilgan ko'rinishlari gap va, umuman, uning tarkibidagi konstitutiv unsurlarida kuzatiladi. Ishimizning mazkur bobida ana shunday masalalar xususida fikr yuritildi.

Bu bobning birinchi paragrafi "*Sodda gap sintaktik shakli kengayishining derivatsion tavsifi*" deb nomlangan. Bunda keltirilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki, tilshunoslikda gap va uning sintaktik derivatsiyasi masalasining o'rganilishi o'zining keng ko'lamlı tadqiqiga ega ekani bilan xarakterlanadi. Bunda uning an'anaviy, sistem-struktur va antropotsentrik yondashuv asosida shakllangan barcha tavsifi ham fanimiz taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos ilmiy ahamiyat kasb etgan va bu borada erishilgan natijalarning barchasi hozirgi kunda ham o'z ilmiy qimmatini saqlab kelmoqda.

Bu borada, A.G'ulomov, M.Asqarova, G'.Abdurahmonov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, H.Ne'matov, B.O'rinboyev, R.Sayfullayev, N.Turniyozov, R.Sayfullayeva, R.Rasulov, M.Qurbonova, B.Mengliyev, R.Bobokalonov, M.Abuzalova, S.Mahmatqulov, X.Xayrullayev, S.Nazarova, G'.Yaxshiboyev, R.Samandarov va boshqa ko'plab olim va mutaxassislarining ishlari alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, so'nggi yillarda semantik sintaksis, formal-funksional sintaksis muammolari borasida qilingan tadqiqot ishlari fanimiz taraqqiyotiga munosib yutuq sifatida qo'shildi. Bu sistem tilshunoslikning shakllanganligini, uning rivoj topayotganini alohida qayd etish imkonini beradi. Nomi zikr etilgan tilshunoslarning ilmiy ishlarida gap tushunchasi, bu tushunchaning shakllanishi va mohiyati, uning tarkibiy tuzilishi, ichki va tashqi strukturasi, unda shakllanuvchi kommunikativ, pragmatik va sistem-struktur jihatlar yoritilgan.

Bu olimlarning tadqiqotlari jahon tilshunosligida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan sistem-struktur paradigma tushunchasi bilan bog'liq holda shakllandi. Ularning ilmiy faoliyati natijasi o'laroq o'zbek tilshunosligida fanimiz masalalariga sistem-struktur yondashuv asosida salmoqli yangiliklarga erishildi. Buni o'zbek tilshunosligi taraqqiyotining barcha sohalarida kuzatishimiz mumkin. Mazkur yondashuv bugungi kunda ham o'ta dolzarb ekani izoh talab qilmaydi.

Sodda gapning shakllanishi, avvalo, tub strukturaga asoslanadi. Tub struktura tayanch strukturaning derivatsiyasi uchun asosdir. Tayanch strukturadan hosila struktura shakllanadi. Bu gapning sintaktik derivatsiyasi uchun muhim bo'lgan bosqichlarni ifoda etadi. Albatta, sodda gap derivatsiyasi uchun, avvalo, kesim va ega alohida muhim konstitutiv unsurdir. Derivatsiyaning keyingi bosqichlarida boshqa bo'laklar ham sintaktik qurilmaning tarkibidan o'rin olib boraveradi. Ma'lumki, nutqiy sintaktik konstruksiyalar til birliklarining aktuallashuvi bilan sodir bo'ladi. Nutq tarkibida so'z va unga teng bo'lgan bu birliklar ham tub struktura uchun ham, tayanch struktura uchun ham, hosila struktura uchun ham konstitutiv komponent bo'la oladi. Bu ularning applikat funksiyasida kelishini ko'rsatadi. Applikatlarning sintaktik qurilma tarkibidan joy olishi esa, o'z navbatida, applikatorlar bilan bog'liqdir. *Ahmadjon maktabga keldi* jumlasida

maktabga soʻziga eʼtibor qaratsak, u *Ahmadjon keldi* tarzida mavjud boʻlgan tayanch struktura asosida shakllangani izoh talab qilmaydi. Chunki, *maktab* soʻzning tayanch strukturaga kiritilishi *-ga* applikator orqali amalga oshmoqda. Berilgan gapdan koʻrinadiki, *tub struktura* – (V) keldi, *tayanch struktura* – Ahmadjon keldi (N+V), *hosila struktura* – (N+X+V) Ahmadjon maktabga keldi; Maktabga Ahmadjon keldi (X+N+V) va hokazo.

Sodda gap sintaktik derivatsiyasi xususida V – *tub struktura*, N+V – *tayanch struktura*, N+X+V, X+N+V va hokazo – *hosila strukturalarning* derivatologiyada yoki gapning eng kichik qolipini aks ettiruvchi [WPm] formulasining sistem-struktur yoʻnalishdagi tadqiqotlarda katta nufuzga ega ekanligi taʼkidlangan fikrga olimlar ijobiy munosabat bildiradilar¹⁴.

Gap shaklining kengayishi valentlik va distributiv munosabat asosida amalga oshishi, bu borada oʻzbek tilshunosligida I.Qoʻchqortoyev, R.Rasulov, A.Mirtojiyev, S.Muhamedovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega¹⁵ ekani qayd etiladi. Biz mazkur fikrga qoʻshilamiz. Chunki sodda gap sintaktik shaklining voqelanishi va kengayishi valentlik hamda distributiv munosabatlarsiz amalga oshmaydi. Gap va uning sintaktik tabiati haqida I.Rasulov¹⁶, A.Nurmonov¹⁷, N.Mahmudov, S.B.Inoyatov¹⁸, S.X.Muhammedova¹⁹, R.R.Bobokalonov²⁰, L.R.Raupova²¹ va shu yoʻnalishda tadqiqot olib borayotgan boshqa tilshunoslarning ishlarida ijobiy fikrlar bildirilganini koʻrish mumkin.

R.R.Bobokalonovning “Oʻzbek tilida semantik-funksional shakllangan soʻz-gaplar” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida hozirgi oʻzbek tilida soʻz-gaplarning semantik, funksional va sintaktik xususiyatlari, ularning predikativlikka munosabati haqida birmuncha teran va ilmiy asoslangan fikrlar berilganligini ham alohida qayd etamiz²².

Ana shunday ishlar jumlasiga L.R.Raupovaning “Oʻzbek tilida nomustaqil kesim masalasi va [WPm→WPm] qurilishli gaplar” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini ham kiritish mumkin²³.

Mazkur ishlarning barchasida tilshunoslikda yangicha talqini lozim boʻlgan masalalarning tahlil va tavsiflari kun tartibiga qoʻyilgan. Bu, oʻz navbatida, fanimiz taraqqiyoti uchun maʼlum darajada ijobiy hissa ekanligi shubhasizdir.

¹⁴ Бобокалонов Р.Р. Ўзбекча-французча семантик-функционал шаклланган гапларнинг дифференциацияси ва коммуникатив нейропсихоллингвистик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ...дисс. –Бухоро, 2022. – Б.90.

¹⁵ Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). – Тошкент, 1977; Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳаракат феъллари ва уларнинг облигатор валентлиги. – Тошкент, 1989; Миртожиев М.М., Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида сўз валентликлари. – Тошкент, 2011.

¹⁶ Расулов И. Предикативлик ва модаллик ҳамда уларнинг ўзаро муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, №4, 1972. –Б. 31.

¹⁷ Нурмонов А. Гап ҳақида синтактик назариялар. –Тошкент, 1988. –Б.25.

¹⁸ Инояттов С.Б. Ўзбек тилида предикатив муносабат: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.

¹⁹ Мухаммедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.

²⁰ Бобокалонов Р.Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

²¹ Раупова Л.Р. Ўзбек тилида номустақил кесим масаласи ва [WPm WPm] қурилишли гаплар: филол. фан. ном.... дисс. автореф. –Тошкент, 1999.

²² Bobokalonov R.R. Koʻrsatilgan avtoreferat. –Toshkent, 2000.

²³ Raupova L.R. Koʻrsatilgan avtoreferat. –Toshkent, 1999.

Bobning “*Yasama soʻzlar derivatsiyasi xususida*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida yasama soʻz tilshunoslik fanida bir qaraganda barcha jihatlari bilan tom maʼnoda oʻz tadqiqini toʻla topgandek tasavvur uygʻotishi haqida fikr bildiriladi. Biroq uning tub mohiyatiga eʼtibor qaratilganida bunga tilshunoslik fanining hozirgi davridagi taraqqiyoti bilan bogʻliq holda, mavjud yondashuvni oʻzgartirish lozim ekani eʼtiborni tortishi shubhasiz ekani yoritilgan. Bunday fikr bildirishning oʻziga xos sabablari bor²⁴. Nazarimizda, qayd etilayotgan muammo majmuaviy muammodir. Sh.Safarov aytganidek: “Majmuaviy muammo sohalararo yondashuvni talab qiladi”²⁵.

Derivatsiya tushunchasi dastlab Yeji Kurilovich tomonidan tilshunoslikda qoʻllanilgan²⁶ boʻlsa, bu tushuncha bilan bogʻliq taʼlimot keyinchalik rus tilshunosligida²⁷, oʻzbek tilshunosligida esa N.Turniyozov va uning shogirdlari ishlarida ham keng qoʻllanib kelinmoqda.

Soʻz yasalishi masalasi mohiyatiga derivatsion qonuniyat asosida yondashar ekanmiz, tadqiqotda derivatsiyaning *operand*, *operator*, *derivat* deb nomlanuvchi terminlaridan foydalanamiz. Bunda operand – derivatsiya jarayonigacha boʻlgan unisurni ifodalaydi. Operator – derivatsiyaning bosh unsuri boʻlib, u derivatsiya jarayoniga chetdan olib kiriluvchi lingvistik birlik yoki vositani taqozo etadi. Derivat – derivatsiyaning mahsuli – hosiladir²⁸.

Jumladan, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorovlarning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligida soʻz yasalishi termini ikki xil hodisaga nisbatan qoʻllanishi: 1) umuman, soʻz yasalishi, soʻz hosil qilinish hodisasini; 2) tilshunoslikning soʻz yasalishi bilan bogʻliq hodisalarni oʻrganuvchi boʻlimini bildirishi qayd etiladi. Mazkur asarda qayd etilishiga koʻra, soʻz yasash, qanday usul bilan boʻlsa-da, yangi soʻz hosil qilish ekani, unga koʻra: *ish+chi – ishchi*, *hozir+javob – hozirjavob*, *besh yil+lik – besh yillik* kabilar koʻrsatib oʻtilgan²⁹. U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar ham soʻz yasalishi xususida atroflicha maʼlumot keltirishgan boʻlib, ularda ham analogik taʼrif va tavsif bildirilgan³⁰.

Yeji Kurilovich nazariyasida derivatning maʼnosi operand maʼnosidan farqlanmasa, bunda *sintaktik derivatsiya* sodir boʻlayotgani, agar derivat maʼnosi operand maʼnosidan farqlansa, bunday vaziyatda *leksik derivatsiya* sodir boʻlgani xususida fikr bildiriladi³¹. Soʻz yasalishi doirasida mazkur tipdagi birlikning soʻzga

²⁴ Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент, 2010; Шоабдурахмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 1980. –448 б.; Холмухамедов Б. Ўзбек тилида лексемалашув. – Самарқанд, 2021. –158 б.; Шодиев Ф. Ҳозирги ўзбек тилида бир бўғинли сўзларнинг структур-семантик талқини ва деривацион хусусиятлари: Филол. фан. ном дисс. автореф. – Тошкент, 2008. –26 б.; Каримова Г. Ўзбек тилида грамматикализация ҳодисаси. – Тошкент, 2010. –104 б.; Усманова М. Ўзбек тилидаги соддалашган туб сўзлар луғати. – Тошкент, 2018. –55 б.

²⁵ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006. –Б. 8.

²⁶ Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. – М., 1962; Кубрякова Е.С. Что такое словообразование. –Москва, 1965. –204 с.

²⁷ Мурзин Л.Н. Основы дериватологии. Конспект лекции. – Пермь, 1984. –56 с.

²⁸ Турниёзов Н. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. – Самарқанд, 1990. –Б. 8.

²⁹ Шоабдурахмонов Ш. ва бошқ. Оʻsha asar.–В.167.

³⁰ Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. –392 б.

³¹ Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая// Очерки по лингвистике. – М., 1962. – С. 57-70.

aylanishi sintaktik aloqaning yo‘qolishi bilan bog‘lab izohlaniladi. Biroq derivatsion qonuniyatga ko‘ra, operator bo‘lmas ekan, derivat hosil bo‘lmaydi. Bu o‘rinda operator nol ko‘rsatkichli³². Bu borada A.Hojiyevning *orombaxsh, hayotbaxsh; xushfe‘l, xushtabiati; oyoq yalang; shalpanq quloq* singari so‘zlarning tarkibidagi tashkil etuvchilarining birini mustaqil ma‘nosini yo‘qotib, shu holatga kelgani bilan bog‘liq qarashlari fikrimizga asos bo‘la oladi³³.

Sintaktik-leksik usulda so‘z yasalishi leksemalashuv (leksemalizatsiya) hodisasi sifatida qayd etiladi³⁴. A.Hojiyev, bu borada, so‘z yasalishiga oid asosiy tushunchalarni to‘la va to‘g‘ri belgilash so‘z yasalishi bilan bog‘liq barcha hodisalar mohiyatini to‘laligicha, to‘g‘ri yoritish imkonini berishini ham ta‘kidlaydi³⁵.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi “*So‘z birikmalari derivatsiyasi*” deb nomlangan. So‘z birikmasi va uning lingvistik tavsifi jahon tilshunosligida mantiqiy-grammatik qarashlar asosida shakllangan. Shu bois ham bunda bosh so‘z va ergash so‘z yoki tobe va hokim so‘z tushunchalari birikma komponentlarining asosini tashkil qiladi. Ba‘zan so‘z birikmasi sintagmaga qiyoslanishi yoki unga tenglashtirilishi ham uchraydi.

Sintagma – bu tarkibiy tuzilishida qat‘iylik mavjud emasligi bilan so‘z birikmasidan farqlanadi. So‘z birikmasi esa ayni jihatiga ko‘ra aniq talablarga mos kelmog‘i shart. Shu o‘rinda sintagmaning nutqda shakllanishi, nutqning parchasi, uning konstitutiv komponenti ekaniga ahamiyat qaratish barobarida, sintagmaning nutqda ohang bilan bog‘liq belgilariga ham e‘tibor qaratilsa, bizningcha, masala mohiyatini tavsiflash, uni yanada chuqurroq anglash imkoniyatiga erishish mumkin. Bu esa nutq ohangining qanday bo‘lishi, bunda urg‘uning va to‘xtam (pauza)ning roli alohida ahamiyatli bo‘lishini hisobga olmoq lozim. Masalan: 1.*Siz yomon odam emassiz.* 2.*Siz yomon, odam emassiz.* Albatta, keltirilgan jumlar bir xil so‘zlardan iborat bo‘lishiga qaramay, ifoda planiga ko‘ra o‘zaro keskin farqlanmoqda³⁶.

